
Dolzarb yumushlarga bag'ishlab

Naymandagi "Saodatli Farog'atxon bog'i" bog'dorchilik fermer xo'jaligi dalasida tumanimizdagi bog'dorchilik-uzumchilik fermer xo'jaliklari boshliqlari, qishloq xo'jaligi mutaxassisleri ishtirokida bo'lib o'tgan ko'rgazmali seminar respublikamiz Prezidentining joriy yil 21 avgustdagi "2018 yil hosili uchun avgust piyozi va sarimsoqpiyoz hamda to'qsonbosti usulida sabzavot ekinlarini joylashtirish, ekish uchun talab etiladigan moddiy-texnika resurslarini o'z muddatida etkazib berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori tumanimizda qanday bajarilayotganligi mavzusida bo'ldi.

Tadbir ishtirokchilari fermer xo'jaligida to'qsonbosti usulida sabzavot ekinlarini joylashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar va mutaxassislar tavsiyalari bilan yaqindan tanishdilar.

Seminarda so'zga chiqqan viloyat hokimining o'rinbosari U. Nosirov, tuman hokimi H. Umarovlar ekilgan piyoz va sarimsoqpiyozning parvarishi hamda to'qsonbosti usulida ko'kpiyoz, turli ko'kat va boshqalarni ekish bo'yicha shu kunlardagi dolzarb vazifalarga e'tiborni qaratdilar.

2017-12-04 11:39:30